

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI TAHLIL QILISH SHAKLLARI

Abdullayeva Feruza Nurillayevna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
Shahribonu Iskandarova
Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni tahlil qilishning samarali shakllari yoritilgan. Xususan, individual, juftlikda va guruhli ishlash shakllari, rolli o‘yinlar, muammoli ta’limga asoslangan yondashuvlar, integrativ va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan shakllarning didaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, jumladan, aqliy hujum va klaster usullarining o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, nutqiy faolligini va matnni chuqur anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada ushbu shakllarning amaliy qo‘llanishi va ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, badiiy asar tahlili, individual ish shakli, juftlikda ishlash, guruhli ish, rolli o‘yinlar, muammoli ta’lim, integrativ yondashuv, ijodiy faoliyat, interfaol metodlar, aqliy hujum, klaster metodi, mustaqil fikrlash, nutqiy rivojlanish*

ФОРМЫ АНАЛИЗА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Абдуллаева Феруза Нуриллаевна
Доцент бухарского государственного педагогического института
Шахрибону Искандарова
2 курс магистратуры Бухарского государственного педагогического
института

***Аннотация:** В статье рассматриваются эффективные формы анализа произведений искусства на уроках грамотности в начальной школе. В частности, анализируется дидактическое значение индивидуальной, парной и групповой работы, ролевых игр, проблемно-ориентированного обучения, интегративных и творческих форм*

деятельности. Одновременно обосновывается роль интерактивных методов, включая мозговой штурм и кластерный метод, в развитии у учащихся самостоятельного мышления, речевой активности и глубокого понимания текста. В статье раскрывается практическое применение этих форм и их важность в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: начальное образование, грамотность чтения, анализ произведения искусства, индивидуальная работа, парная работа, групповая работа, ролевые игры, проблемно-ориентированное обучение, интегративный подход, творческая деятельность, интерактивные методы, мозговой штурм, кластерный метод, самостоятельное мышление, развитие речи

FORMS OF ANALYSIS OF ARTISTIC WORKS IN PRIMARY LITERACY LESSONS

Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Docent at Bukhara State Pedagogical Institut

Shahribonu Iskandarova

2nd year master's student of the Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: *This article discusses effective forms of analysis of artistic works in primary literacy lessons. In particular, the didactic significance of individual, pair and group work forms, role-playing games, problem-based learning approaches, integrative and creative activity-oriented forms is analyzed. At the same time, the role of interactive methods, including brainstorming and cluster methods, in developing students' independent thinking, speech activity and deep understanding of the text is substantiated. The article reveals the practical application of these forms and their importance in increasing educational effectiveness.*

Keywords: *primary education, reading literacy, analysis of a work of art, individual work form, pair work, group work, role-playing games, problem-based learning, integrative approach, creative activity, interactive methods, brainstorming, cluster method, independent thinking, speech development*

KIRISH. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darolarida badiiy asarlarni tahlil qilish turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. Darsda qo'llaniladigan shakllar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, dars samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu tufayli o'qituvchi darsni tashkil etishda, individual va juftlikda ishlash, guruhli ish va

rolli o‘yinlar singari turli pedagogik shakllardan oqilona foydalanishi muhim hisoblanadi.

Individual ishlash shaklida har bir o‘quvchi matnni mustaqil o‘qiydi, voqealar haqida fikr yuritadi hamda savollarga javob topishga harakat qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda o‘qish jarayonida faol ishtirok etishga yordamlashadi.

Juftlikda ishlash shakli badiiy asarlarni tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar ikki kishidan iborat bo‘lib ishlaydi va matn yuzasidan fikr almashadi. Juftlikda ishlash o‘quvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirib, o‘z fikrini asoslab berish hamda boshqalarning fikrini tinglash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Guruhli ish shakli esa o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruhlarda ishlash jarayonida o‘quvchilar asar qahramonlarini tahlil qiladi. Voqealar rivojini aniqlaydi hamda umumiy xulosa chiqaradi va bu jarayon o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, rolli o‘yinlar shaklidan foydalanish ham badiiy asarlarni o‘qitishda samarali natija beradi. Rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar asardagi qahramonlar obrazlarini jonlantiradi, ularning his –tuyg‘ularini his qiladi va voqealarni yanada chuqurroq anglaydi. Bu usul o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantirib, dars jarayonini qiziqarli qiladi.

Integrativ shakl –turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlash orqali o‘quvchilarning bilimlarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar o‘qigan va tahlil qilganda ularni boshqa fanlar bilan bog‘lash keng imkoniyatlarga ega. Masalan, hikoya mazmuni asosida ona tili darsida turli grammatik mashqlar bajarish, o‘qilgan she‘r asosida tasviriy san‘at darsida rasm chizish mumkin. Bu o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi, tasavvurini kengaytiradi. Alloma Abdulla Avloniy ta‘lim va tarbiya jarayonining uzviy bog‘liqligini ta‘kidlab, bilimlarni hayot bilan bog‘lash zarurligini alohida qayd etadi. Uning bu qarashlari integrativ yondashuvning pedagogik asoslarini tashkil etadi.

Ijodiy faoliyatga asoslangan shakl. O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda badiiy asar tahlilining ijodiy shakllari ahamiyatlidir. Bunda o‘quvchilar faqat tayyor bilimni qabul qilmaydi. Balki o‘zi yangi mahsulot ham yaratadi. Quyidagicha ijodiy topshiriqlar bo‘lishi mumkin:

- asarni davom ettirish(davomini yozish);
- qahramonlar nomidan hikoya tuzish;
- voqeani boshqa yakun bilan tasvirlash;

-asar asosida rasmlar chizish.

Ko‘rinib turibdiki bunday topshiriqlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O‘quvchi ijodiy jarayonga faol ishtirok etib, o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi va yangi g‘oyalar ishlab chiqadi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim o‘rin egallamoqda. Badiiy asarlarni tahlil qilishda AKT vositalaridan foydalanish dars jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkillashtirish imkonini beradi. Axborot kommunitasiyalariga asoslangan shaklga she‘rni audio shaklda tinglash, hikoya asosida videolavha ko‘rish, turli taqdimotlar yordamida tahlil qilish kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. AKT asosidagi shakl orqali o‘quvchilarda axborot bilan ishlash, raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalar rivojlanadi.

Zamonaviy ta‘limda interfaol shakllardan foydalanish muhim o‘rin egallaydi. Interfaol shakllar o‘quvchilarning darsdagi faol ishtirokini ta‘minlaydi va mustaqil fikr yuritishga undaydi. “Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ta‘lim muassasalarida o‘qitish ishlarining yangi interfaol usullar deb nomlangan metodlari qo‘llanila boshlandi. Bu metodlar xorijiy hamda MDH mamlakatlarining amaliyotida qo‘llanilgan bo‘lib, ular respublika pedagogik olimlari tomonidan qayta ishlanib, mamlakatimiz o‘quv muassasalari sharoitiga moslashtirib ta‘lim tarbiya jarayoniga qo‘llanila boshlandi. Ushbu metodlar o‘qitishning samarasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular ta‘lim oluvchilarda mantiqiy, ijodiy tanqidiyva mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ilm oluvchining ta‘lim obyektidan faol subyektga yo‘naltirishni, ularning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishni, nazarda tutadi”¹

Badiiy asar tahlilida interfaol shakllardan foydalanish o‘quvchilarning matn mazmunini yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

METODLAR. “Aqliy hujum” usuli. Bu usul o‘quvchilarni mavzu bo‘yicha keng va har tomonlama fikrlashga, muammoni mustaqil tushunish va yechishda o‘quvchilar motivatsiyasini uyg‘otishga o‘rgatadi. Dars jarayonida o‘qituvchi o‘rtaga muayyan savol yoki muammo tashlaydi hamda o‘quvchilardan o‘z fikrlarini so‘raydi. Masalan, “Asarning asosiy g‘oyasi nima?”, yoki “Qahramonning qaysi xatti-harakati sizga yoqdi?” singari savollar orqali o‘quvchilar fikrlari yig‘iladi. Va yakunida oqituvchi xulosalovchi, aniq javobni aytadi.

“Aqliy hujum uslubining asosiy qoidalari:

¹ I.E.Davronov, B.T.Jurayev, Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi, Buxoro, “Durdona” nashriyoti-2019, 185-b.

- ilgari surilgan fikr va g‘oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying;
- maqsad-fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish;
- qancha ko‘p g‘oya va fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi, bebaho fikr va g‘oyaning tug‘ilish ehtimoli paydo bo‘ladi;
- agar fikrlar qaytarilsa rad etmang.
- bu muammo faqatgina ma‘lum aniq usullar yordamida hal bo‘lishi mumkin deb o‘ylamang;
- fikrlar hujumini o‘tkazish vaqtiga qat‘iy rioya qiling;
- berilgan savollarga qisqacha javob bering”².

“Klaster” yoki **“Tarmoqlash” usuli**. Bunda o‘quvchilar matn mazmunini tizimli ravishda tahlil qiladi. Bu usulda asosiy tushuncha markazga yoziladi va unga bog‘liq fikrlar shoxlanib , tarmoqlanib chiqadi.

“Mosini top” metodi. Bu metodda bir tomonga ma‘lumotlar va qolgan yarmida shu ma‘lumotning ikkinchi qismi(yoki bir tomonda savol bir tomonda javob shaklida) bo‘lgan varaqalar doskaga yopishtiriladi. O‘quvchilar ma‘lumotlarni moslashtirishlari talab etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlar fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Negaki badiiy matnlar orqali o‘quvchilarning faqat o‘qish ko‘nikmalari emas , fikrlash , tahlil qilish , xulosa chiqarish qobiliyatlari ham shakllanadi. Olib borgan tahlillarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, 2- sinf o‘qish savodxonligi darsligida badiiy janrlar ichida hikoya janri ham yetakchi o‘rinlarda turadi. Buni hikoya janrining soddaligi, ixchamligi, obrazlari va syujetining hayotiyliigi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi bilan izohlashimiz mumkin.

“Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib , unda kishi hayotidagi ma‘lim bir voqea , hayotning muhim tomonlari umumlantirib tasvirlanadi”³**Hikoya** mazmunan boshlang‘ich sinflar uchun mos janr. Kichik yoshli o‘quvchilarni qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, undagi qahramonlarning xatti-harakati hamda turli voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar qiziqtiradi.

Darslikdagi ushbu hikoyalardan biri **“Sehrlil so‘z”** hikoyasini tahlil qilsak:

² Nurova Feruza Kamolovna, Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qishga qiziqtirishda innovatsion-integratsion texnologiyalardan foydalanish usullari, Monografiya, Buxoro-2023, “Durdona” nashriyoti. 20-21-b.

³ Karima Qosimova, Ona tili o‘qitish metodikasi, Toshkent <<Nosir>> nashriyoti 2009, 112-b

2-sinf O‘qish savodxonligi darsligi 4-qismning 12-bo‘limi “Shirin –shakar so‘zlasang , sehrgardek bo‘lasan!” deb nomlanadi. Bo‘limdagi 1-va 2- darslar mos ravishda “Nutq sehri I”, “Nutq sehri II” deb nomlanadi va anashu ikki darsda muallif Muhabbat Hmidovanning “Sehrlı so‘z” hikoyasi o‘rganiladi.

1-darsda hikoyadan avval sehrlı so‘z aslida qanday bo‘lishini izohlovchi quloqqa xush yoquvchi “Minnatdorman”, “Marhamat”, “Assalomu alaykum”, “Iltimos”, “Xush kelibsiz”, “Rahmat” so‘zlari va shular haqida qisqacha matn, so‘ng hikoya (2.2-rasm) keltirilgan. Hikoyadan so‘ng o‘quvchilarni fikrlashga undovchi, zehni o‘tkirlashtiruvchi savollar, izohli lug‘at va topshiriqlar, ma’nosini izohlash uchun maqollar berilgan.

- 1. Kimlarning suhbatini o‘qingiz?
2. O‘ylab ko‘ring, so‘zlar sehrlı bo‘ladimi? Nima uchun?.....
- -Anqoning urug‘i-sira topilmaydigan narsa. (Anqo-oti bor , o‘zi yo‘q , afsonaviy qush)
-Peshtaxta –sotuvchini xaridordan ajratib turadigan stol
- Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing!
- -Yaxshi gapga quloq sol, yomon gapga uloq sol.
-Yaxshi og‘izga – osh, yomon og‘izga-tosh.
- Uyga topshiriq

So‘ng ikkinchi dars boshlanadi. Hikoyaning qisqacha mazmuni shunday: sehrlı so‘zni bilmoqchi bo‘lib Firdavs bobosining sharti, ya’ni u so‘zlarni yomon bolalar oldida ishlatmaslikka va’da beradi va bobosi unga “Oyijon, men sizni judayam yaxshi ko‘raman . Endi sirayam sizni xafa qiladigan gap aytmayman. Meni kechiring” degan sehrlı so‘zlarni o‘rgatadi. Ona – bola yarashib oladilar. 2-darsdan so‘ng ham mavzu bo‘yicha savollar, topshiriq va maqollar berilgan. Badiiy matn bilan ishlash jarayonida o‘qituvchining suhbat, muhokama va savol-javob kabi an’anviy metodlar bilan birga zamonaviy usullardan ham foydalanishi muhim hisoblanadi va bu o‘quvchilarda muloqot kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” darsliklarida berilgan badiiy asarlar o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim metodik imkoniyatlarga ega ekanligini yuqoridagi tahlillar yordamida ko‘rib chiqdik. Asarlarni tahlil qilishda savol-javob , munozara , obrazlarni taqqoslash va voqealarga baho berish kabi metod va usullardan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam berishini o‘rgandik. Shuningdek, badiiy asarlarni o‘qitish jarayonida yosh xususiyatlari, qiziqish va bilish imkoniyatlarini hisobga olish, dars davomida interfaol metodlardan foydalanib, matn ustida tizimli ishlash muhim metodik shart-sharoitlardan ekanligini bilib oldik. Fikrimizni xulosalaydigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy asarni o‘qitish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va

metodik jihatdan asoslash o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni tahlil qilish o'quvchilarning nafaqat o'qish malakasini, balki ularning tafakkuri, nutqi va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida turli tashkil etish shakllaridan maqsadli va uyg'un foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Individual ishlash o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirsa, juftlik va guruhli faoliyat ijtimoiy hamkorlik, muloqot va fikr almashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Rolli o'yinlar orqali o'quvchilar badiiy matn mazmunini chuqurroq his etadi, muammoli ta'lim esa ularni tahliliy va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradi. Integrativ va ijodiy yondashuvlar esa o'quvchilarning bilimlarini kengaytirib, ularni erkin va kreativ fikr yuritishga undaydi. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilar faolligini oshirib, darsni jonli va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar orqali o'quvchilar matnni chuqur anglash, o'z fikrini asoslab berish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydi. Umuman olganda, badiiy asarlarni tahlil qilishda zamonaviy pedagogik shakl va metodlardan tizimli foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50. 3. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8. 4. Nurullayevna A. F. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy ommabop maqolalarni o'rgatish //барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 406-409.

5. Kurbanova S. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса курбанова шоира нарзуллаевна, абдуллаева феруза, очилова го //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Курбанова Ш. Н., Абдуллаева Ф., Очилова Г. О. Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса //новые педагогические исследования: сборник статей IV. – 2021. – С. 20.

7. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish // Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – С. 1030-1035.

8. Абдуллаева, Ф. Н. (2022). Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2022.9. 09.034 Abdullayeva Feruza Nurilloevna Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 243-246.

9. Abdullayeva Feruza, N. (2022). Start Methodological Options for Teaching Scientific and Popular Articles in First Grade Mother Tongue and Reading Literacy Classes. International Journal of Trend in Scientific Research and Development, 6(6), 1433-1436.

10. Nurilloevna, A. F. (2022). General Structure of Teaching Courses of Popular Scientific and Artistic Articles on the Theme of the Seasons of the Year. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(6), 1-5